

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi

60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) bakalavriat ta'lif yo'naliشining  
malaka talablari

Toshkent



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti;

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021- yil «24» 08 dagi 4 - sonli yig'ilishida ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 202\_ -yil «05» 08 dagi 365- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi.

Mazkur malaka talabi "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabni rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

		bet
T/r		
1.	<i>60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)</i> bakalavriat      ta'llim yo'naliшining umumiy tavsifi .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta'llim      yo'naliшhi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2	<i>60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta'llim      yo'naliшhi Malaka Talablarining asosiy foydalanuvchilar.....	4
1.2.	<i>60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta'llim      yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	<i>60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta'llim      yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta'llim      yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	<i>60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta'llim      yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta'llim      yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta'llim      yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiylariga qo'yiladigan talablar	6
2.1.	Umumiy kompetensiylar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiylar.....	6
	<i>Bibliografik ma'lumotlar</i> .....	7
	<i>Kelishuv varag'i</i> .....	8

## **1. 60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik) bakalavriat ta'lif yo'nalihsining umumiyo tavsifi**

**60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)** ta'lif yo'nalihsini bo'yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi ta'lif shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lif shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'lifda bakalavriat daturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)** ta'lif yo'nalihsini Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)** ta'lif yo'nalihsini bo'yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta'lif tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lif yo'nalihsini bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lif tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lif yo'nalihsining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lif tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

– ta'lifni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lif tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lif tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– Oliy ta'lif tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)** ta'lif yo'nalihsini bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

**1.2.1. 60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)** ta'lif yo'nalihsini bo'yicha bakalavriatlar kasbiy faoliyatining sohalari:

**60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)** bakalavriat ta'lif yo'nalihsini – fan, ta'lif va san'at sohasidagi yo'nalihs bo'lib, san'at va madaniyat muassasalarida, davlat va mahalliy boshqaruv organlarda, davlat korxona va tashkilotlarda, ta'lif muassasalarida, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi musiqashunoslikka oid ishlar bilan bog'liq tashkiliy-ijodiy-ijtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, san'at ta'lif sohasining tegishli yo'nalihsilari bilan bog'liq kompleks masalalari mazmunini qamrab oladi.

*Bitiruvchi diplom ilovasiga Davlat Attestatsiya komissiyasi garoriga binoan Musiqashunos, musiqiy-nazariy va tarixiy fanlar o'qituvchisi, lector, tanqidchi kvalifikatsiyalari yozib beriladi*

**1.2.2. 60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)** ta'lif yo'nalihsini bo'yicha bakalavriatlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

– san'at sohasidagi tegishli jarayonlar;

– ijodiy faoliyat jarayonlari;

– mualliflik huquqi himoyasiga tegishli qoidalar, san'at sohasining axborot va dasturiy ta'minoti;

– musiqashunoslik faoliyati va ularning targ'iboti, ijodiy g'oyalarini loyihalash va amaliyotga tatbiq qilish jarayonlari;

– pedagogik faoliyat hamda o'quv-tarbiya jarayoni.

**1.2.3. 60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- ijodiy - ijrochilik;
- professional ta'lif, umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lif muassasalari hamda musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagogik;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

**1.2.4. 60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lif yo'nalishi bo'yicha baklavrlarning kasbiy vazifalari:**

**60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lif yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:**

**Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:**

- musiqa oid adabiyotlar va tarixiy manba (risola, qo'lyozma)lar bilan ishlash;
- o'z fikrini mantiqiy va uzviylikda bayon etish;
- yuqori saviyada musiqiy fikr va adabiy uslublarga ega bo'lish;
- musiqiy asarlar, ma'lumotlarni teran taxtildil qilish va baholash;
- notiqlik mahorat va imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish;
- ko'rsatuv va eshittirishlar uchun materiallar tayyorlash va olib borish

**professional ta'lif, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida pedagogik faoliyatda:**

- professional ta'lif, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lif tizimining ixtisoslikka mos ta'lif muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg'ulotlarini o'tkazish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish usullarini ishlab chiqish va o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjalarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;
- mustaqil ta'lif va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;
- o'quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish;
- musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta'lif jarayoniga singdirish;
- o'quv jarayonini, o'quv-uslubiy, ma'naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg'or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- ijodiy jarayonlarni tashkil etish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;
- ijodiy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijodiy jarayonlarni monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat havfsizligi talablariga mos kelishi borasida ijodiy jarayonlarni nazorat qilish;
- musiqashunoslik ko'nikmalarini amaliyotga tadbiq qilish;
- ijodiy jarayonda sifatni boshqarish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi san'atshunoslik, musiqashunoslik ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda musiqa san'atiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borishda ishtirok etish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- musiqa san'atiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rghanish;
- kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihamalarini o'rghanish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

## **2. 60211000 - San'atshunoslik (musiqashunoslik)) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumi kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil eta olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- O'zbek musiqasi tarixi bo'yicha muhim voqealar, ijodkorlar ijodi, tarixiy jarayonlar va ularning musiqaga ta'siri kabi masalalarni davrlar kesimida o'rghanishi;
- O'zbek maqomiga bevosita aloqador bo'lган Sharq xalqlari musiqasini, Sharq musiqashunosligrini mustaqil fan darajasiga ko'targan ota-bobolarimizning yaratgan asarlarini (risola va qo'lyozmalarini) o'rghanishi, tarjima qilish orqali jarayonga bog'lashi hamda muktab asoschilarini va davomchilarining ijodiy faoliyatini taxlil etishi, manbashunoslikka oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- O'zbek mumtoz musiqa ijrochiligi (o'zbek musiqasining ustuvor asosi – Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'on-a-Toshkent maqom yo'llari, katta ashula va b.) – og'zaki an'anadagi ustozona musiqani tarixiy, nazariy, amaliy jihatdan o'rghanishi.
- Milliy musiqa cholg'ularidan birini (yoki bir nechtasini) o'rghanish va uni bevosita amaliyotda qo'llay olishi.
- O'zbek mumtoz musiqa ijrochiligidagi namunalarni mustaqil ravishda notalashtira olishi;
- O'zbek bastakorlik ijodiyoti, tarixi, zamonaviylik tamoyillarini hozirgi kun nuqtai – nazari bilan taxlil etish mahoratiga ega bo'lishi.
- Jahon musiqasi tarixi va zamonaviy kompozitorlik ijodiyotidan xabardor bo'lishi, musiqiy tanqidiy sohaga oid bilimlarga, maxsus janrlari yuzasidan yetarli bilimlarga ega bo'lishi va tanqidiy fikrlar yurita olishi, radio va telejournalistika notiqligi sohasiga oid ko'nikmalar hosil qilishi;
- Musiqiy – nazariy (garmoniya, polifoniya, solfedgio, Musiqiy-nazariy tizimlar,

monodiyaning nazariy asoslari) fanlar bo'yicha yetarli bilim va amaliyatga ega bo'lgan holda ilmiy faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

– Pedagogik mahoratiga, kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar bilan ishlar mohiyatini tushunishi, musiqa san'ati fanlari bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalaviratning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyat, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlar bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, ijrochi-ijadkorlik, ilmiy tadqiqot jarayoni.

## KELISHUV VARAG'I

### ISHLAB CHIQILDI:

Yunus Rajabiy nomidagi  
O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Rektor

O.Nazarbekov

202 yil " "

M.O.



### KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta  
maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi  
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va  
ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor v.b.

 M.Esonov

202 yil " "  
M.O.

O'zbek milliy maqom san'ati  
markazi

Bosh direktori

 S.Begmatov

202 yil " "  
M.O.

O'zbekiston kompozitorlari va  
bastakorlari uyushmasi

Rais

 R.Abdullaev

202 yil " "  
M.O.



O'zbekiston davlat  
filarmoniyasi

Bosh direktori

 Z.Zairov

202 yil " "  
M.O.

